IJTIMOIY HIMOYAGA MUHTOJ AHOLI QATLAMLARINING TURMUSH TARZINI YAXSHILASHDA MADANIY FAOLIYATNING IJTIMOIY MEXANIZMLARI

Baxramova Nodira
Mirobod tuman inson ijtimoiy xizmatlar markazi ijtimoiy xodimi
https://doi.org/10.5281/zenodo.22857510

Annotatsiya: Ushbu tezisda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarining turmush tarzini yaxshilashda madaniy faoliyatning o'rni va uning ijtimoiy mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berilgan. Shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan insonparvar ijtimoiy siyosat, ijtimoiy davlat tamoyillari hamda ehtiyojmand shaxslarni qo'llab-quvvatlash borasidagi islohotlar jarayonida madaniy-ma'rifiy chora-tadbirlarning ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy himoya, madaniy faoliyat, ijtimoiy mexanizmlar, turmush tarzi, ijtimoiy adolat, insonparvar siyosat, ma'naviy muhit.

СОЦИАЛЬНЫЕ МЕХАНИЗМЫ КУЛЬТУРНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЛУЧШЕНИИ ОБРАЗА ЖИЗНИ СОЦИАЛЬНО УЯЗВИМЫХ СЛОЕВ НАСЕЛЕНИЯ

Аннотация: В данной тезисе научно-теоретически освещены роль культурной деятельности и ее социальные механизмы в улучшении образа жизни социально уязвимых слоев населения. Также проанализировано значение культурно-просветительских мероприятий в процессе реализуемой в стране гуманной социальной политики, принципов социального государства и реформ по поддержке нуждающихся лиц.

Ключевые слова: социальная защита, культурная деятельность, социальные механизмы, образ жизни, социальная справедливость, гуманная политика, духовная среда.

SOCIAL MECHANISMS OF CULTURAL ACTIVITY IN IMPROVING THE LIFESTYLE OF SOCIALLY VULNERABLE SEGMENTS OF THE POPULATION

Abstract: This thesis scientifically and theoretically highlights the role of cultural activity and its social mechanisms in improving the lifestyle of socially vulnerable segments of the population. It also analyzes the significance of cultural and educational measures in the process of the humane social policy implemented in the country, the principles of a social state, and reforms aimed at supporting people in need.

Keywords: social protection, cultural activity, social mechanisms, lifestyle, social justice, humane policy, spiritual environment.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning tub mohiyatiga nazar tashlasak, ularning barchasi yagona va ezgu maqsad – inson qadrini yuksaltirish, har bir fuqaroni rozi

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

qilish, uning munosib hayot kechirishi uchun munosib sharoit yaratish g'oyasi atrofida birlashganini ko'ramiz. Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy himoya sohasida mutlaqo yangi tizim shakllantirildi. Ilgari turli idoralarda tarqoq holda yuritilgan ijtimoiy xizmatlar yagona tizimga birlashtirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda hududlarda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlarining tashkil etilishi bu boradagi eng muhim institutsional islohotlardan biri bo'ldi. Bu islohotlar orqali ehtiyojmand insonni idorama-idora yugurtirish emas, balki davlat xizmatini uning o'ziga yaqinlashtirish maqsad qilindi. Prezidentimiz yana bir fikrni alohida ta'kidlaydilar: "Kuchli ijtimoiy himoya – Yangi O'zbekiston ning eng muhim ustuvor vazifalaridan biridir". Bu so'zlar bugun nafaqat dasturiy g'oya, balki kundalik faoliyatimizning amaliy mezoniga aylangan. Ayniqsa, mahallabay ishlash tizimi joriy etilishi ijtimoiy himoya sohasini yangi bosqichga ko'tardi. Bu esa ijtimoiy himoyaning mazmunini tubdan o'zgartirib, uni oddiy nafaqa yoki moddiy yordam berishdan inson hayotini yaxshilashga qaratilgan kompleks tizimga aylantirdi.

Jamiyat taraqqiyoti va uning ma'naviy yetukligi iqtisodiy o'sish raqamlari bilan birga eng avvalo, har bir insonning qadr-qimmati, uning ruhiy olami va hayotdan rozi bo'lib yashashini ta'minlashga qaratilgan g'amxo'rlik darajasi bilan o'lchanadi. Inson ko'ngli nozik bir soz, unga mehr va e'tibor yetishmasa, hayot ohanglari sustlashadi. Ayniqsa, hayotning turli sinovlariga duch kelgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarning qalbiga yo'l topish, ularni jamiyatdan ajralib qolgandek his etmasliklarini ta'minlash bugungi kundagi eng ezgu va dolzarb vazifalardan biridir. Oddiy ko'z bilan qaraganda, moddiy ta'minot va ijtimoiy nafaqalar insonning asosiy ehtiyojlarini qondirishga yetarlidek tuyuladi. Biroq inson non bilan birga ma'naviy yorug'lik, san'at sehri va madaniy muhit bilan ham nafas oladi. Ma'naviy ko'makka intilgan qalbga san'atning iliq nuri tushganda, inson o'zining yolg'iz emasligini, jamiyat uchun kerakli va qadrli ekanini chuqur his qiladi.

Aynan shu nuqtai nazardan, madaniy faoliyat oddiy ko'ngilochar jarayon hisoblanmay, jamiyatdagi og'riqli nuqtalarga malham bo'luvchi, insonni hayotga qaytaruvchi qudratli ijtimoiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Teatr sahnalaridagi birgina samimiy sahna ko'rinishi, kuy-qo'shiqlarning qalblarni larzaga soluvchi tarovati yoki muzey va kitobxonlik kechalarining maftunkor muhiti insonni dardidan chalg'itib, unga yangi umr nafasini bag'ishlaydi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarning hayot sifatini oshirishda madaniy faoliyat ko'p qirrali vazifalarni bajaradi. Birinchidan, madaniy-ma'rifiy tadbirlar, teatr tomoshalari va konsert dasturlari inson ruhiyatidagi zo'riqishlarni yengillashtirib, unga psixologik muvozanatni tiklashga yordam beradi. Hayot tashvishlari va jismoniy imkoniyatlarning cheklanganligi sababli dunyodan uzilib qolgandek his etadigan insonlar san'at maskanlariga tashrif buyurganda, tashqi olam bilan jonli muloqotga kirishadi. Bu jarayon ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirib, jamiyatning faol a'zosi ekanliklarini anglashlarida muhim poydevor vazifasini o'taydi.

Ikkinchidan, madaniy faoliyat insonlarni birlashtiruvchi kuchli ijtimoiy integratsiya vositasi hisoblanadi. Maxsus tashkil etiladigan ijodiy kechalar, mahorat darslari va to'garaklar ehtiyojmand insonlarning o'zaro muloqot maydonini kengaytirib, ularni yolg'izlikdan xalos etadi. Bunday muhitda ular o'zlarining yashirin iste'dodlarini kashf etishadi, yangi do'stlar orttirishadi va ijtimoiy muhitga moslashish jarayonini tezlashtiradilar. Natijada madaniy muassasalar shunchaki dam olish joyi bo'lmay, balki insonlarni jamiyat bag'riga qaytaruvchi ma'naviy ko'prikka aylanadi.

Uchinchidan, ushbu jarayonlarni tizimli tashkil etishda davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligi muhim ijtimoiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Hududlarda madaniy tadbirlarni imkoniyati cheklangan va ijtimoiy yordamga muhtoj shaxslar uchun moslashtirish, ularning teatr, muzey

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

hamda ko‘rgazmalarga to‘siqsiz kirishini ta’minlash bo‘yicha maxsus dasturlarni ishlab chiqish talab etiladi. Ko‘ngillilar harakati va madaniyat xodimlarining hamjihatligi orqali har bir insonning madaniy hayotdan bahramand bo‘lish huquqi kafolatlanadi, bu esa ijtimoiy adolat tamoyillarini hayotga tatbiq etishda amaliy natijalar beradi.

To‘rtinchidan, madaniy faoliyatning ijtimoiy mexanizmlari inson kapitalini rivojlantirishga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Madaniyat va san’at orqali ta’lim olish, estetik zavqlanish hamda dunyoqarashni kengaytirish insonlarning intellektual salohiyatini oshiradi, ularning kelajakka bo‘lgan umidini mustahkamlaydi. Ruhiy jihatdan qo‘llab-quvvatlangan va madaniy muhitga to‘laqonli singib ketgan inson jamiyat taraqqiyotiga o‘zining munosib hissasini qo‘sha oladi. Shuning uchun ijtimoiy himoya siyosatini madaniy faoliyat bilan uyg‘un holda olib borish davr talabi bo‘lib, bu yondashuv har bir insonning farovon hayot kechirishini ta’minlashda kafolat bo‘lib xizmat qiladi.

Darhaqiqat, ijtimoiy siyosat har bir davlat rivojlanishi va boshqaruvining, ta’bir joiz bo‘lsa, tayanch ustunidir. Jamiyatdagi turli shaxslar va turli guruhlar o‘rtasidagi tenglikni tartibga solishda, ijtimoiy adolat va ijtimoiy muvozanatni ta’minlashda uning o‘rni beqiyos. Sotsiolog olimlar ijtimoiy siyosatni tarixiy fenomen sifatida XX asrning ikkinchi yarmida qaror topgan, degan qarashni ilgari sursalar-da, olis moziy insoniyat tamaddunida ijtimoiy tengsizlik va ijtimoiy ziddiyatlarni bartaraf etishda iqtisodiy, huquqiy va boshqa ta’sir mexanizmlarini amalda qo‘llagan davlatlar hamda hukmdorlarning safi oz bo‘lmaganini ko‘rsatadi. Binobarin, sohibqiron Amir Temur ham “Kuch – adolatda” deya raiyatni himoya qilish qudratli saltanatni barpo etishning muhim omillaridan ekanini ta’kidlagan.

Jamiyatda besh qo‘l barobar bo‘lmaganidek, davlat ko‘magining u yoki bu shakllariga ehtiyojmand qatlam vakillari bor. Keksalar, nogironlar, boquvchisini yo‘qotganlar, ishchsizlar, bolalar...

Respublikamiz aholisi umumiy sonida ularning ulushi kam emas, albatta. Shunga ko‘ra, hozirgi erkin bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida yangi O‘zbekistonning ijtimoiy adolat va ijtimoiy barqarorlikka asoslangan insonparvar siyosatda sobit ekani hamda bu jarayon xalqaro minbarlarda e'tirof etilayotgani kishiga mamnuniyat bag‘ishlaydi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda ijtimoiy sohada juda muhim va dadil qadamlar tashlandi. Odamlarning umumkayfiyatiga ta’sir etuvchi muammolarni aniqlash va hal etish, ijtimoiy kafolatlarni, aholini har tomonlama himoya qilish choralarini ko‘rish davlatimizning ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Xususan, 2023-yili yangilangan Konstitutsiyamizda O‘zbekistonning ijtimoiy davlat sifatida maqomi mustahkamlanib, davlatning bu sohadagi majburiyatlari uch barobarga ko‘paytirildi. Aholining ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta’minlash, fuqarolarni ishsizlikdan himoya qilish, kambag‘allikni qisqartirish, sifatli tibbiy yordamga bo‘lgan huquqlarini kafolatlash, ta’limning barcha shakllariga g‘amxo‘rlik qilish, hamma uchun teng imkoniyatlar, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga oid davlat majburiyatlari aniq belgilab qo‘yildi.

Shunday qilib, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat aholi turmush darajasini yuksaltirish, daromadlar va yashash tarzida keskin tafovutlarning, tengsizlikning oldini olish, har bir insonni davlatning e'tibori va g‘amxo‘rligidan bahramand etish maqsadlarini izchil ro‘yobga chiqarmoqda. Shu boisdan, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarning turmush tarzini yuksaltirishda davlat olib borayotgan oqilona islohotlar madaniy faoliyat mexanizmlari bilan chambarchas bog‘langandagina yanada yuqori samara beradi. Moddiy farovonlik insonning jismoniy ehtiyojlarini qondirsa, ma’naviy-madaniy muhit uning qalbini boyitib, jamiyatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Demak, madaniy faoliyatning ijtimoiy mexanizmlarini takomillashtirish orqali har bir fuqaroning

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

jamiyatda o‘z o‘rnini topishini ta’minlash Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan adolatli va insonparvar ijtimoiy siyosatning eng muhim amaliy natijalaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarining turmush tarzini yaxshilash jarayoni faqatgina moddiy ta’minot yoki ijtimoiy nafaqalar bilan cheklanib qolmaydi. Inson ko‘ngliga yo‘l topish, uning ruhiy olamini boyitish va jamiyatga integratsiyalashuvini ta’minlashda madaniy faoliyatning o‘rni va ta’sir doirasibeqiysodir. San’at va madaniyat maskanlari ehtiyojmand insonlarning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, ularni yolg‘izlikdan xalos etish hamda hayotga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashda qudratli ijtimoiy mexanizm sifatida xizmat qiladi. Shu boisdan, davlatimizda amalga oshirilayotgan insonparvar ijtimoiy siyosatni madaniy-ma’rifiy chora-tadbirlar bilan uzviy bog‘lash bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Aholining barcha qatlamlari, xususan, ijtimoiy yordamga muhtoj shaxslar uchun madaniy boyliklardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish jamiyatda adolat, o‘zaro hamjihatlik va ma’naviy muvozanatni ta’minlaydi. Zero, har bir fuqaroning hayotdan rozi bo‘lib, madaniy muhitda erkin nafas olib yashashi Yangi O‘zbekistonda barpo etilayotgan adolatli va farovon jamiyatning eng yorqin ko‘rsatkichidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toshtemirova N. Manzilli himoya – munosib hayot kafolati / Diyor ovozi gazetasi (28). – Toshkent, Niso. 2026. 8 b.
2. Mahkamova F. Ijtimoiy himoya: aniq, manzilli va samarali / O‘zbekiston ovozi gazetasi. — Toshkent: Sharq, 2026. — 17-son. 8 b.
3. Shomuradovich, N. A. (2022). MAHALLA AS A MUSICAL PLATFORM. Проблемы современной науки и образования, (8 (177)), 120-123.
4. Sh, N. A. (2021). MAHALLA IS A HOTBED OF EDUCATION FOR THE YOUNGER GENERATION. Проблемы современной науки и образования, (12 (169)), 106-109.
5. Oripova, R. I. Ways to develop the pedagogue's competence in improving the quality of education. StoneDAU. Pedagogy, psychology and teaching methodology.
6. Ibrohimovna, O. R. (2021). Tips system in module education. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(2), 382-385.
7. Shermanov, E. (2021). Role of mass media in the formation of participatory education in the context of globalization.
8. Shermanov, E. U. (2025). DAXLDORLIK FAZILATI ORQALI TALABALARNING MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH: STRATEGIYA VA MEXANIZMLAR. Inter education & global study, (3), 596-603.
9. Saidovich, J. S., Uralovich, S. E., Kurbanov, A., & Erkinovna, A. N. (2022). The role of cinema in the system of education.
10. Shermanov, E. (2024). Madaniy intellektning ijtimoiy soha mutaxassislarini tayyorlash jarayonidagi integratsion roli. MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI JURNALI, 1(8).
11. Shermanov, E. U. Madaniy Kompetentlikni Rivojlantirishda Daxldorlik Fazilatining O ‘rni Va Ta'siri. Maktabgacha va Maktab Ta’limi Jurnali, 676322.
12. Nazarbaevna, Q. A., & Serjanovich, K. S. (2024). The Importance of Scenario in Cultural Events. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4, 259-262.
13. Nazarbai, K. A. (2023). NEW VOICE IN UZBEK DIRECTION. Journal of Innovation, Creativity and Art, 2, 65-70.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

14. Kolkanatov, A. (2025). The Need to Improve the Performance of Cultural Centers. Turkology, (2).
15. Qolqanotov, A. (2026). NATIONAL SONGS AS A SPIRITUAL NEED. AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE, 4(2), 86-91.
16. Kahramonovna, Y. D. (2026). LIBRARY PROMOTION IN IMPROVING YOUTH'S ARTISTIC THINKING-AS A CULTURAL AND ENLIGHTENMENTAL EVENTS. AMERICAN JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN, 4(3), 223-239.
17. Kahramonovna, Y. D. (2025). CULTURE AND ART–THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE. SHOKH LIBRARY, 1(11).
18. Юсупалиева, Д. К. (2020). Понятие и функции политической элиты. Вестник науки и образования, (14-2 (92)), 67-69.
19. Юсупалиева, Д. К. (2020). ПАРТИЯ КАК ПОЛИТИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ. In Современная наука и ее ресурсное обеспечение: инновационная парадигма (pp. 134-138).
20. Юсупалиева, Д. К. (2020). Сущность политического прогнозирования. Молодой ученый, 46, 522.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.